

RAQAMLI MEDIA VA AXLOQ

Xaydarova Xilola Rahimberdievna

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

Sotiboldieva Saodatxon Soyibjon qizi

PS 25-07 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20611311>

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli media va axloq masalalari yoshlarning virtual-savodxonligini rivojlantirishga bag'ishlangan bo'lib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli media orqali yoshlar Network raqamli aloqalar, raqamli etiket kabi tushunchalarini qay darajada o'zlashtirishi alohida bayon etilgan. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash savodxonligi dolzarb muammolardan biri ekanligi va bu muammoning echimini izlashda avvalo yoshlarda virtual savodxonlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlimedia, virtual madaniyat, mediamadaniyat, virtual savodxonlik, Network raqamli aloqalar, raqamli etiket, raqamli texnologiyalar, yoshlar, ota-ona, tarbiya.

Хайдарова Х.П. О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 2019 yil 31 dekabrda tasdiqlandi. Ushbu Konsepsiyada ota onalarning farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni emiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlarga e'tibor berilgan. Shuningdek, oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida: bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; mahallalardagi "Ota-onalar universitetlari" da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha treninglar o'tkazish; "Tarbiya maktabi" rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish; uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida "Yosh ota-onalar kitobi" va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, xududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va yoshlarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkaziladi [1].

Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim-tarbiya masalasi murakkab, keng ko'lamli masalalardan biri bo'lib, ulkan ma'suliyatli ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim ekani isbot talab qilmaydigan muammolardan biridir.

Mediata'lim raqamli texnologiyalarning o'sib borayotgan ta'siri bilan uzviy bog'liq va dolzarb ahamiyatga ega. Agar ilgari Internetdan foydalanish oddiy syorfig va chatlardagi

muloqot bilan chegaralangan bo'lsa, hozirgi paytda raqamli tashuvchilar bilan axborot almashinuvi shunchalik keng tarqalgan va faolki, tarmoqdan mobil foydalanish smartfonning dunyoga o'ziga xos oyna bo'lishini ta'minlaydi, uning foydalanuvchisini esa faol foydalanuvchiga, axborot tarqatuvchiga, uni yaratuvchiga aylantiradi. Shu sababli mediata'lim sohasidagi raqamlashtirish bilan bog'liq yana bir muhim tushunchani — *prosyumer* — mediani yaratish, ishlab chiqarish, ishtirokchisini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Prosyumer so'zi 1980 yilda Elvin Toffler tomonidan taklif qilingan bo'lib, "ishlab chiqaruvchi" va "iste'molchi/konsyumer" so'zlaridan tashkil topgan.

Yangi axborot voqeligi va mediaga to'lib toshgan dunyoda newmedia: raqamli media, mobil media, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.lar foydalanuvchisidan networking, remiksing, sharing, kontent va multimediani yuklab olish, yaratish, tarqatish va savodli tarzda foydalanish ko'nikmalarini talab qiladi. Aynan shu sababli newmedia ekotizimini ta'riflovchi yangi tushunchalar - raqamli savodxonlik, yangi mediasavodxonligi, multimediasavodxonligi tushunchalari paydo bo'ldi [2].

Mediasavodxonlikka tegishli yana bir muhim tushuncha *netiquette* — *netiket* (raqamli etiket). Bu so'z Internetdan foydalanuvchilar xatti-harakatlari qoidalarining umumiyligidir. Raqamli etiketga rioya qilish yangi axborot tartibida mediadan savodli foydalanishning majburiy talabidir.

Boshqacha aytganda, mutaxassislar shuni qayd etadiki, mediata'lim mass-mediani tushunish va tahlil qilishning bosh shartidir, ya'ni fuqarolarni OAV tomonidan tarqatiladigan soxta yoki manipulyativ axborotdan himoyalashning asosiga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga raqamlimedia axborotlarini muntazam ravishda etkazib turish mexanizmlarini ishlab chiqish, virtual savodxonlik va virtual ta'lim sohalarini rivojlantirish davr talabiga aylanib qolmoqda. Vaxolanki, ommaviy axborot vositalari orqali milliy urf-odatlarimizga, qadriyatlarimizga mos kelgan xolda raqamli etiket normalari haqida ko'rsatuvlar, reklamalar, video roliklar muntazam ravishda berib borilsa hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlarimiz uchun muhim bir dastur bo'lar edi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. 31 dekabr 2019 yil.
2. Медиа и информатсионная грамотност в обществах знания / Сост. Кузмин Е. И., Паршакова А. В.-М.: МСБС, 2013.-С. 14.
3. Медиа и информатсионная грамотност в обществах знания / Сост. Кузмин Е. И., Паршакова А. В.- М.: МСБС, 2013.
4. Хайдарова X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2022 yil, 216 b.